ISAJON SULTON "MILLIY YARATIQLAR"I TAHLILI

Termiz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich magistranti ***Nurullayeva Iroda Mamadi qizi***

Annotatsiya. Isajon hayoti va ijod yo'li haqida qisqacha ma'lumot berib o'tildi. Adibning milliy yaratiqlarga batafsil to'xtalindi. Milliy topilmalarning badiiy adabiyotda tutgan o'rni, folklordagi ahamiyati yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Transmilliy, milliy, modernizm, folklor, etimologik, obraz.

Isajon Sulton 1967-yilda Farg' ona viloyati Rishton tumanida tug'ilgan. Bo'lajak yozuvchi o'rta maktabni tugatgach, 1990-yilda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida davom ettiradi, adibning ijodiy jarayonga kirishi, yozuvchilik yo'li qaysidir ma'noda shu dargohdan boshlanadi. 1996-yilda esa adib O'zbekiston yozuvchilari uyushmasiga a'zo bo'ladi.

Adibning "Munojot", "Boqiy darbadar", "Ozod", "Bog'i Eram", "Tanlangan asarlar", "Hazrati Hizr izidan", "Bilga xoqon", "Alisher Navoiy", "Ma'suma" kabi bir qator asarlar yozdi, adabiyot ummonida o'z o'rni va yo'liga ega bo'ldi.

Isajon Sulton asarlarida badiiy ruh, jozibadorlik, qahramonlar psixologiyasi boshqacha nigohda tasvirlanadi. Yozuvchining qahramonlari, voqealari bizga tanish-u, lekin ularning har birida biz ko'zimiz ilgamaydigan jihatlar namoyon boladi. Shu boisdan bo'lsa kerak Isajon Sulton haqida "Isajon Sulton deganda asar tilidagi joziba va go'zallikni, aniqlik va ixchamlikni, milliylikni alohida

ta'kidlamaslik mumkin emas,"[1] deb yozadi akademik Baxtiyor Nazarov. O'zbekiston qahramoni, adabiyoshunos Ibrohim G'afurov esa "Isajon Sulton bu – qip-qizil ekzistensializm,"[2] deb qayd etar ekan, uning ekzistensializm yo'llari hamda falsafasiga shaydo ong va yuragida dunyo bilan tabiatning kelib chiqishiga nazar solish g'oyasi paydo bo'lganligini bir qator hikoyalari misolida tahlil qiladi.

"O'zbek xalqining xayoliy yaratiqlari qomusiy esse"sida adib tomonidan turli xayoliy yaratiqlar haqida ma'lumot berib o'tadi. Bu milliy yaratiqlar har bir xalqning o'zigagina xosligini ifodalay turib, bu yaratiqlarni turli guruhlarga ajratadi:

1."Transmilliy yaratiqlar"- Qora qo'l, Tuyoqli kishi, dev, ajdar, ajina;

2. "Milliy yaratiqlar"- alvasti, oziqchi, jeztirnoq, qilich ko'targan kishilar, mesh, qorasoya,olabo'ji.

Isajon Sulton tomonidan turli guruhlarga ajratilgan bu xayoliy uydurmalar xalq og'zaki ijodi mahsuli hisoblanadi, folklor an'analarining yorqin namunalaridan sanaladi. Dastlab transmilliy atamasining kelib chiqishiga to'xtalamiz.Transmilliy" so'zi ikki qismdan tashkil topgan:

- **"trans"** — "orqali", "oshib o'tuvchi"
- **"milliy"** — "millat" yoki "davlat"ga oid

Shuning uchun **transmilliy** degani:

[1] Nazarov B. Iste'dod manzaralari. // Isajon Sulton nasri badiiyati. – T.: 2017. "Turon zamin ziyo", 2017. – B.7.

[2] G'afurov I. Yozuvchi, tabiat va tabiyot//o'sha manba, – B.19.

bir nechta davlat yoki millatlar chegarasidan tashqarida faoliyat yurituvchi degan ma'noni anglatadi. Ya'ni bir yurtdan tashqarida qo'llanuvchi, aholi turmush-tarzi, ijtimoiy hayotida mavjud bo'lgan xayolot mahsuli.

Adib qomusiy essening birinchi qismida "Qora qo'l" ga alohida to'xtalib, voqealarni tasvirlar ekan, "Tun, oy havolab ketgan, deraza tabaqasining biri ochiq, tashqaridan tungi saslar, ariq suvining shovuri eshitilar, xonaning bir chetiga oy shu'lasi tushib turarmish",-deya asar voqealari jarayonining tasviriga alohida urg'u beradi.Birovlarning rizqini, mulkini o'g'irlaydigan o'g'rining bir qo'lini kesib tashlanishi, "Umring bo'yi birovlarning rizqini o'g'irlading, iloyo, o'zing ham burda nonga zor bo'lgin",- deyilishi bekorga emas, albatta. Ko'p insonlarning qarg'ishi urganidanmi bu qo'l hali-hanuz insonlar o'rtasida bor va qayerda burda, sindirilgan non ko'rsa, uni olib ketadi, sababi, butun nonni sindirishga ikkinchi qo'li yo'q. Asarda o'g'ri "yeb qo'yilgan yarimta nonga qo'shilib, butun nonga aylansam-u, shu taqdirimdan qutulsam" deb o'ylaydi. Shunday qilib afsonalar el ko'rgan kunlardan darak beradi.

Bu obraz Yevropa xalqlarida, bulg'or, skandinaviya mamlakatlarida mavjud. Keyinchalik esa islom mamlakatlari, O'rta Osiyo hududiga ham kirib keladi.

Yana bir G'arbiy Yevropa mamlakatlari xalqlari hayotida uchrovchi bir sharpa borki, u iblisning malaylari bo'lmish sefirlar, ya'ni odam boshli, echki tuyoqli qiyofalar haqidagi rivoyatdir. Bu rivoyatda ota-onasi to'yga ketib, uyida yolg'iz qolgan opa-singilni qo'rqitgan bu tuyoqli qiyofalar, ozoda bo'lmagan, kir joylarni axtarib kelib qoladi. Hamma joyi orasta manzillarga esa bu maxluqot yaqinlasha olmaydi. Asar so'nggida" u ota hozir dunyodan o'tib ketgan, qizaloqlar

kap-katta xotinlarga aylanishgan, biroq uylariga borib qolsangiz, har yerning saranjom-sarishta qilib supurilganini, ozodaligini ko'rasiz"deya aytib o'tiladi.

Folklor asarlarida orastalik, ozodalik, poklik kabi fazilatlarning tez-tez uchrashi bejiz emas. Chunki xalq og'zaki ijodi nafaqat ko'ngilxushlik yoki badiiy tasvir vositasi, balki avlodni tarbiyalashning muhim manbai ham hisoblanadi. Ertak, maqol, doston va rivoyatlar orqali insonning tashqi va ichki pokligi ulug'lanadi, ozoda yurish, tartibli bo'lish, go'zallikni qadrlash kabi qadriyatlar yosh avlod ongiga singdiriladi.

Xalqimiz nazarida ozodalik — faqat tashqi ko'rinish emas, balki inson qalbining pokligi, odob-axloqining go'zalligi ramzi sanalgan. Shu sababli folklor qahramonlari ko'pincha orasta, pokiza va didli inson sifatida tasvirlanadi. Bu esa tinglovchi yoki o'quvchini ham shunday fazilatlarga intilishga undaydi. Demak, folklor asarlarida bunday tushunchalarning uchrashi xalqning ma'naviy dunyosi, tarbiyaviy qarashlari va komil inson haqidagi orzularini ifodalaydi.

Ajdar-transmilliy yaratiqlar orasida Xitoy mamlakatidan kirib kelgan qahramon hisoblanadi. Ularda ajdar donolik, aql-zakovat ramzi hisoblanadi,uning qiyofalari turli-tuman ko'rinishi mavjud bo'lib, tez-tez tashqi qiyofasini o'zgartiradi, zolim hukmdorni urug'-aymog'i bilan yo'q qiladi, hattoki ajdarning tasviri xitoy xalqi hukmdorlarining liboslarida ham uchraydi. Biroq turkiy xalqlarida yov, dushman deya qaraladi, xalq qahramonlari, doston bahodirlari ularni o'ldirishadi, tanasidan tasmalar kesib olishadi, botirlikning bir ko'rinishi sifatida e'tirof etiladi. Turkiy eposlarning asosiy qonuni qahramonlik bo'lgani uchun, transmilliy yaratiqlarning bari turkiy qahramonlar qoshida bosh egishadi va halok bo'lib ketishadi.

Ajina-Markaziy Osiyo turkiy xalqlari orasida uchrovchi bu tushuncha arabcha "jin" so'zining asosidan kelib chiqqan, bu ko'pincha ayol kishi qiyofasida tasvirlanadi, turli -tuman joylarda, changalzorlarda uchrovchi obraz sanaladi.

Dev- ko'hna hind va fors-tojik xalqlari orasida bahaybat, egnida lungi(eski davrlarda erkaklar boshiga o'ralgan mato ham "lungi" deb atalgan. Ayrim hududlarda esa belga o'raladigan yupqa mato ma'nosida ishlatiladi) sidan boshqa kiyimi yo'q befarosat mahluq haqida to'xtalib o'tadi, bu xayolot mahsuli hindlarning "rakshas" deyilgan qahramonidan, Eronga o'tgan va umummilliy ertak-afsonalarga ko'chgan.

Milliy yaratiqlar deyilganda bitta millat vakillari uchun mansub bo'lgan hosilotlar tushuniladi. Bularga alvasti, oziqchi va shu kabilar kiradi.

Alvasti-eng yomon, dahshatli qilmishlarni sodir etuvchi bukchaygan, makkor yovuz qahramon hisoblanadi. Sulaymon ibn Dovuddan so'ng butun dunyoda Muhammad payg'ambar davri boshlandi. Oradan ming yildan so'ng alvasti endi sochi yoyiq holatda emas, ro'mol o'ragan holatda ko'rina boshlandi, ya'ni keyingi ming yillikda alvasti Tangri taoloning hukmiga bo'ysunib, taniganiga guvoh bo'lamiz.Asarlardagi yaratiqlar ham Olamlar yaratuvchisiga bo'ysunganiga guvoh bo'lamiz.

Oziqchi va Jeztirnoq-mahalliy yaratiqlar sanaladi. Ular Andijon va Farg'ona xalqlari folklorida uchraydi. Bu atamalar tarixiy bo'lib, "azmoq,ozmoq" so'zlarining etimologiyasidan kelib chiqqan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, folklor va badiiy adabiyotda dev, ajina, alvasti kabi g'ayritabiiy yaratiqlarning uchrashi xalqning qadimiy tasavvurlari, qo'rquvlari, orzu-intilishlari hamda hayot haqidagi qarashlari bilan chambarchas

bog'liqdir. Qadim zamonlarda inson tabiat sirlarini to'liq anglay olmaganligi sababli noma'lum va qo'rqinchli hodisalarni turli mifologik obrazlar orqali tasavvur qilgan. Natijada xalq og'zaki ijodida dev, ajina, alvasti singari timsollar paydo bo'lgan va ular avloddan avlodga o'tib kelgan.

Bu obrazlar folklor asarlarida shunchaki qo'rqitish vositasi emas, balki chuqur ma'naviy va tarbiyaviy ma'noga ega ramzlar sifatida xizmat qiladi. Masalan, dev ko'pincha yovuzlik, kuch va zulm timsoli bo'lsa, ajina yoki alvasti insonning ichki qo'rquvi, jaholat yoki noma'lum kuchlarga ishonchini ifodalaydi. Qahramonlarning ana shu kuchlarni yengib o'tishi esa ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasini ko'rsatadi. Shu orqali xalq yosh avlodni jasurlik, sabr-toqat va mardlikka undagan.

Bundan tashqari, bunday obrazlar asarning badiiy ta'sirchanligini oshiradi, voqealarga sirli va qiziqarli tus beradi. Tinglovchi yoki o'quvchi qalbida hayajon uyg'otib, asarni yanada esda qolarli qiladi. Ayniqsa, ertak va dostonlarda bu kabi timsollar xalq fantaziyasining kengligi va boy tasavvur olamini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, dev, ajina, alvasti kabi yaratiqlar folklor va badiiy adabiyotda xalqning tarixiy tafakkuri, ruhiy kechinmalari va tarbiyaviy qarashlarini aks ettiruvchi muhim badiiy vosita hisoblanadi. Ular orqali insoniyatning ezgulik va yovuzlik haqidagi tushunchalari, hayotiy tajribasi hamda ma'naviy qadriyatlari ifodalanadi. Shu bois bu obrazlar nafaqat xalq ijodining ajralmas qismi, balki milliy madaniyat va ma'naviyatning ham yorqin ko'zgusidir. Isajon Sulton esa aynan mana shu yaratiqlarni o'z dunyoqarashlari bilan birgalikda yoritib beradi.Har biriga alohida ta'rif berib o'tadi."Isajon modernizm, postmodernizm allaqachon jahonni zabt etgan, milliy adabiyotimizga ham dadil kirib kelgan

davrning farzandi, yetuk ijodkorlari sifatida maydonga chiqdi, – deb yozadi U. Normatov, – ammo u yangicha tamoyillarga ko'r-ko'rona ergashmadi,o'ziga xos mafkuraviy – ijodiy yo'ldan bordi."[3] O'z yo'liga hamda o'z so'ziga ega ijodkorning badiiy adabiyotdagi martabasi ham anchayin yuqori.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
2. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*. (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
3. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
4. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING BOBLARI BO'YICHA TAVSIFI. *Shokh Articles Library*, *1*(2).
5. Isajon Sulton "Qoraqush yulduzining siri"- G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi-Toshkent-2019
6. "Struktur adabiyotshunoslik"- Xolbekov M.N.
7. Xasanov Suhrob Shavkat o'g'li- **Hozirgi o**'zbek va ingliz nasrida intermatn hodisasi talqini(Isajon Sulton, Bahodir Qobul va Kadzuo Isiguro asarlari misolida)

[3] Normatov U. Yetuklik jozibasi//o'sha manba. – B.12.

8. Ziyo.uz
9. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
10. Zafariddin Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.